



XOTIN-QIZLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI, TURLARI VA AHAMIYATI

Qilichova Kamola Luqmonxon qizi

Leytenant, Zafarobod tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari
boyicha katta inspektori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567260>

ARTICLE INFO

Received: 16th January 2023

Accepted: 24th January 2023

Online: 25th January 2023

KEY WORDS

Xotin-qizlar jinoyatchiligi, ayol jinoyatchilarining toifalari, oiladagi muhit, xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ahamiyati.

ABSTRACT

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va hayot tarzini yaratish boyicha ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo'lishiga qaramnasdan xalqimiz orasida ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilmoqda. Ushbu maqolada bizni e'tiborimizni qaratgan holat xotin-qizlar jinoyatchiligi va ayol jinoyatchilarning tavsifidir.

Ayol muqaddas zotdir, ammo hozirgi kunda ayollarimiz tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlar, g'ayriijtimoiy qilmishlar sodir etilmoqda. Bu orqali ayollarimizning jamiyatdagi qadri va o'rne pasaymoqda. Dunyoda ko'p tilga olinayotgan ayollar yoki xotin-qizlar jinoyatchiligi tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak "***Xotin-qizlar jinoyatchiligi-ma'lum bir hududda muayyan vaqt oralig'ida voyaga yetmagan va katta yoshdagi ayollar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlar yig'indisidir.*** Ayrim olimlar tomonidan xotin-qizlar jinoyatchiligi o'rganilib quyidagicha xulosaga kelishgan: "***Xotin-qizlar jinoyatchiligi deganda muayyan hudud(mamlakat yoki uning ma'muriy hududiy birligi)da, ma'lum davr (oy, chorak, yarim yil, to'qqiz oy, bir yil, ikki yil va boshqa muddatlar)da xotin-qizlar tomonidan (14 yoshdan yuqori) sodir etilgan barcha jinoyatlar majmuini o'z ichiga olgan, belgilangan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ta'riflanadigan, yashirin xususiyatga ega, nisbatan ommaviy, ob'ektiv, tarixiy o'zgaruvchan, ijtimoiy xavfli, ijtimoiy-huquqiy hodisa.***"¹

Xotin-qizlar jinoyatchiligining shaxsi nuqtai nazarida to'xtaladigan bo'lsak ularni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin. 1897-yilda Xalqaro kriminalistlar uyushmasining Geydelbergda bo'lib o'tgan syezdida jinoyatchilarning tavsifi qabul qilingan bo'lib, u teng darajada jinoyatchi ayollarga ham tegishli hisoblanadi. Ushbu tavsifga ko'ra:

- Tasodifiy, epizotik jinoyatchilar;
- Xulq-atvorida jiddiy beqarorlik bo'lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan;
- Ashaddiy yoki professional jinoyatchilarga ajratiladi.

Ch.Lombrozo ham o'zining "Jinoyatchi yoki fohisha ayol" asarida jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan ayollarni 3 toifaga bo'ladi: birinchi toifaga tug'ma jinoyatchi ayollarni, ikkinchi toifaga

¹ Kriminologiya. Umumiy qism: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/I. Ismoilov, Q. Abdurasulova, I. Fazilov. 2015-y. b-59



tasodifiy jinoyatchi ayollar, uchinchi toifaga esa ehtirosli jinoyatchi ayollarni kiritgan². Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda jinoyatchi ayollarni 4 toifaga ajratsak bo'ladi.

1. Tug'ma jinoyatchi ayollar;
2. Tasodifiy, epizotik jinoyatchilar;
3. Xulq-atvorida jiddiy beqarorlik bo'lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan;
4. Ashaddiy yoki professional jinoyatchilar.

Xotin-qizlar jinoyatchiligi tahlil etilganda bugungi kunda umumiy jinoyatlarning 11,5 %ni ayollar tomonidan sodir etilayotganligi aniqlandi. Respublikamiz bo'yicha jinoyatlarning tahlilini amalga oshiradigan bo'lsak, 2019 yilda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning 10,2% ni qasddan odam o'ldirish, 17,3%ni qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 24,7%ni qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 18,2%ni qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, 12,4%ni haqorat qilish, 5,7%ni o'zini o'zi o'ldirish darjasiga yetkazish, 9%ni bezorilik, 8,8%ni nomusga tegish, 4,1% qiynash, 3%ni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, 9,3%ni boshqa turdagi jinoyatlar tashkil etadi. 2020- yilda esa bu ko'rsatkich biroz oshgan. Ya'ni umumiy 5774 nafar xotin-qizlar tomonidan 5520 ta jinoyat sodir etilgan. 2019 yilga nisbatan firibgarlik jinoyatlari 30%ga, o'g'irlik jinoyatlari esa 20%ga ko'paygan. Shu bilan birga tovlamachilik 20%ga, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar 38%ga, shuningdek og'ir turdagi jinoyatlar kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Statistika bo'yicha qaraydigan bo'lsak 2020 yilda har 100 ming ayolga 32 ta jinoyat to'g'ri kelmoqda. 2021 yilda sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilinganda, o'ta og'ir turdagi bo'lgan qotillik jinoyatlarining 35,2% (236 tadan 83 tasi) oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotganligini ko'rsatmoqda. Bu turdagi jinoyatlar Jizzax, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida oshgan. Oila-turmush munosabatlari doirasidagi 83 ta qotillik jinoyatining 38 tasi er-xotin o'rtasida, 6tasi aka-ukalar, 35 tasi boshqa qarindoshlar o'rtasida kelib chiqqan nizolar sababli sodir etilganligini ko'rishimiz mumkin. Ularning sabablari o'rganilganda 7% ni o'ch olish maqsadida, 12% rashk sababli, 55%ni murosaga kelisha olmaslik, 7%ni mol-mulk talashish hamda 18%ni boshqa sabablar tashkil qiladi. Respublikamizda 2022 yilda xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o'rganilib tahlil etilganda umumiy jinoyatlar 17% ga ko'payganligi aniqlandi. Birgina Jizzax viloyati miqyosida olayotgan bo'lsaylik 2023-yil yanvar oyi holati bo'yicha sodir etilgan 5 ta firibgarlik jinoyatining 3 tasini xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, qolgan 2 tasi ayollar jabrlanuvchi bo'lib qolmoqda. Mazkur holat yuzasidan o'rganilgan ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning 50%ga yaqini iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlarga, 15 %ga yaqini shaxsning hayotiga qaratilgan jinoyatlarga to'g'ri kelmoqda. Bu degani jamiyatimizda qanchalik ayollar jinoyati oshib borsa, oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning tarbiyasida og'ish holatlari ko'payib o'zidan o'zi ular o'rtasida jinoyat sodir etilishini avj oladi.

Xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning jamiyatga ta'sir etuvchi ahamiyati qanday? Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi shuni aytish mumkinki, yuqarida ko'rsatib o'tilgan shaxsning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning 90%ini oila turmush doirasida kelib chiqqan. Birgina mana shu jinoyatlar zahirida o'sib kelayotgan shu oiladagi

² Ch.Lombrozo. "Renome", 1998.-400



farzandlarimizning ongi qanday rivojlanayotganligi, bu va ularning atrofidagi ijtimoiy-kriminogen muhitning qanday tus olayotganligiga baho bersak bo'ladi. Tasavvur qilib ko'ring nosog'lom muhitda katta bo'lgan farzanddan kelajakda nimani kutish mumkin? Qanday tarzda uni to'g'ri yo'lga boshlasak bo'ladi? Shu holatda u qiz bola bo'lsachi? Savollar ko'plab tug'iladi, ammo bular bilan ish bitmaganligi tufayli biz ularning sababi va yechimini qidirish yuzasidan tadqiqot ishlarini olib bormoqdamiz. Yoshlar kelajagimiz poydevori ammo ularga tarbiyani ko'pincha onalarimiz berishadi. Bizning o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimizni ham onalar dunyoga keltirib tarbiyalashku, nega ular orasida shunchalik xudbinlikka berilgan ayollar haqida gap, so'z bo'lmagan, nima uchun hozir shunday vaziyatga tushub qolmoqdamiz. Farzandlarimiz orasida tug'ilgandan keyin voyaga yetishgacha bo'lgan davrda ichkillikka berilgan, givohvandlik moddalarini qabul qiluvchi, yengil hayotga berilgan ya'ni qo'shtirnoq ichidagi fohishalik bilan shug'ullanuvchi voyaga yetmagan qizlarimizning bugungi kunda real hayotda o'zlarini ko'rsatishi, bu ularning tarbiyasida ota ayniqsa onalarining o'rni umuman bo'lmaganligini ko'rsatadi. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, yurtimizda hozirgi kunda avj olgan masala bu oiladagi ajrimlarning ko'payishi, buning natijasi o'laroq ajrim bo'lmagan taqdirda sha'riy nikoh asosida ikki tomon kelishuvi orqali birga yashash holatlarining mahallada ildiz otishi bilan bog'liq vaziyatlar. Shu holatda qonuniy nikohida bo'lgan ayol tomonidan o'zining turmush o'rtog'ining hayotiga yoki o'zining hayotiga qasd qilgan holatlari mavjud. Undan tashqari oiladagi moddiy yetishmovchilik yoki ayolning o'z turmush o'rtog'iga nisbatan ko'proq moddiy tomondan ta'minlab qo'yishi natijasida er va xotin o'rtasida nizo kelib chiqmoqda. Bu nizolar doimiy bo'lishi tufayli yo ayol o'z turmush o'rtog'ini hayotiga qasd qilishi yo er tomonidan xotiniga og'ir tan jarohati jinoyatini sodir etilishi aniq ko'rinib turgan holatdir. Ko'pchilik olimlarimiz fikricha oilada ikki tomoning ishsizligi, real daromadlarning kamayishi, oila ahamiyatining pasayishi, ajrashishlar soning ko'payishi ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatchilik darajasining o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning motiviga to'xtalsak, rashk, o'ch olish, xasadgo'ylik, jabrlanuvchidan qutulishda namoyon bo'ladi. Shunday holatlar ro'y bermasdan oldin bizning fuqarolik jamiyati institutlarimiz shunga o'xshash oilalar bilan ishlamaydi balki jinoyat sodir etgandan keyin o'rganishga kirishadi. Har bir ona o'z farzandini jinoyatchi yoki alkash bo'lishini xohlamagandek bizning davlatimiz ham o'z kelajagini tomshirmoqchi bo'lgan yoshlarni jinoyatchi bo'lishini xohlamaydi. Shuning uchun hozirgi davlatimiz siyosati mana shu oila muhitida tarbiya ko'rayotgan yoshlarni sog'lom muhitda shakllanishi uchun avvalo uning oilasidagi muhitni barqarorlashtirish, tarbiya ko'rsatayotgan otasi ayniqsa onalarining to'g'ri yo'ldan borishlarini nazorat qilishni o'zining asosiy vafizasi sifatida ko'radi. Shu jumladan ayollar jinoyatchiligini o'rganish nafaqat jinoyatchi ayollar va ular sodir etgan jinoyatlarni, balki, ushbu jinoyatlarni sodir etishiga turtki bergan sabablar hamda imkoniyat va qulaylik yaratgan sharoitlarni, ularning ijtimoiy xavflilik jihatlari hamda xususiyatlarini ham o'rganishni talab etadi. Chunki ona jinoyatchi bo'lgan uyda bolalar qarovsiz bo'lib, nazoratsiz qoladi, qarovsiz qolgan bolalar esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga yoki ularning g'ayri ijtimoiy harakat sodir etishiga olib keladi. Bunga aslo befarq bo'lmasligimiz, har qanday holatlatda ularni oldini olishga harakat qilishimiz zarur. Shunday mushkul vazifani bajarishga faqatgina ichki



ishlar organlari mas'ul emas, balki vatan taqdirini o'z taqdiri bilan bog'lagan har bir mas'uliyatli shaxsning vazifasi sifatida qarajak adolatli bo'ladi.

Men bu boradagi ishlar yuzasidan o'z takliflarimni omma bilan bo'lishmoqchiman. Birinchidan, xotin-qizlarni nima sabadan bunday jinoyatlarga qo'l urayotganligini sabablarini chuqur tahlil qilgan holda ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni keng jamoatchilik orasida, ularning ishlash va yashash joylaridagi jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikda muhokama qilish, farzandlari bilan alohida shug'ullanish hamda mahallada mana shu jinoyatni sodir etish xavfi yuqori bo'lgan oilalar bilan manzilli ravishda ishlash. Ishlash jarayonida faqat hududiy ichki ishlar organlari emas balki Prezidentimiz tashabbuslari bilan tashkil etilgan "mahalla beshligi" ning o'rni va rovidan faoydalanish.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'smir qizlar bilan doimiy ravishda ishlash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha dars mashg'ulotlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikdagi seminar treninglar tashkil etish.

Uchinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod bo'lib qaytib kelgan ayollarni qaytadan yangi jinoyat sodir etmasliklari uchun ular bilan profilaktik ishlarni tashkil etish. Bunda ichki ishlar bilan hamkorlikda hududiy mehnat va bandlik organlari, tuman tibbiyot birlashmalari, ta'lim muassasalari, mahalla jamoatchilik tuzilmalari bilan ularni qayta hayotga moslashishlari uchun sharoit yaratish.

References:

1. Kriminologiya. Umumiy qism: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/I. Ismoilov, Q. Abdurasulova, I. Fazilov. 2015-y. b-59;
2. Ch. Lombrozo. "Renome", 1998.-400;
3. Q. Abdurasulova. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: Monografiya.-T. 2005.-231 b.
4. O'zbekiston Respublikasi IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktika xizmatining 2019-2022 yillardagi faoliyati yakunlari bo'yicha statistic ma'lumotlar. www.stat.uz